MATN VA DISKURS TUSHUNCHALARI MUNOSABATI

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
dilnozasarbarova1@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7998832

Annotatsiya. *Diskurs so‘zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda. Maqolada diskurs tushunchasi, uning kelib chiqishi tarixi, sharq va g‘arb olimlarining matn va diskurs tushunchasini tadqiq etish borasidagi xulosalari, shuningdek, matn va diskurs tushunchalarining munosabati haqida bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Diskurs, matn, nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika.*

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo‘nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o‘z «ichki» sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o‘rganilishida namoyon bo‘ladi. XX asrning so‘nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo‘lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e’tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o‘rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. O‘tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo‘llangan *diskurs* so‘zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda. Ye.S.Kubryakovaning qayd etishicha, «tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta'rifi mavjud emas».

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o‘ta jadallik bilan sodir bo‘layotgan fanlar integratsiyasini o‘zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo‘lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo‘nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi. Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so‘zi lotincha dis- “uzoqda” ma’nosidagi prefiksdan va “yugurish” ma’nosini bildiruvchi “currere” o‘zagidan olingan. Shuning uchun nutq "qochish" deb tarjima qilinadi va suhbat qanday o‘tishini anglatadi. Nutqni o‘rganish - bu ijtimoiy kontekstda og‘zaki yoki yozma tildan foydalanishni tahlil qilishdir. Diskurs tadqiqotlari nutqda tilning shakli va funktsiyasini uning kichik grammatik qismlari, masalan, fonema va morfemalardan tashqari ko'rib chiqadi. Gollandiyalik tilshunos Teun van Deyk rivojlanishda muhim rol o‘ynagan ushbu tadqiqot sohasi tilning katta birliklari, jumladan, leksemalar, sintaksis va kontekst suhbatlarga qanday ma'no qo'shishi o‘rganadi. Diskurs - bu keng tarixiy ma'nolarni yetkazish uchun tilning ijtimoiy jihatdan qo'llanilishi. Bu qo'llanilishining ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo'llanayotgani bilan belgilanadigan tildir. Til hech qachon "neytral" bo‘lolmaydi, chunki u bizning shaxsiy va ijtimoiy dunyolarimizni bog‘lashga xizmat qiladi.

«Matn» va «diskurs» tushunchalari. Bu ikki tushuncha negizidagi hodisalarni farqlashda funksionallik-strukturaviylik, dinamik-statik, aktuallik-virtuallik kabi qarama-qarshiliklardan

foydalanib kelinmoqda. Bizni qiziqtirayotgan narsa: birinchidan, bunday qarama- qarshiliklar mavjudmikan, ikkinchidan esa, agarda ular haqiqatdan mavjud bo‘lsa, qay yo‘sinda va qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishadi? Matn va diskurs tahlili muammolari bilan ko‘p yillardan buyon shug‘ullangan Mikael Stabbs 1983-yilda nashr qilingan asarida quyidagilarni yozgan edi: «Odamlar gaplar tasodifiy qatorini bog‘liq matndan farqlay oladilar, shuning uchun ham kogerentlikni ta’minlovchi tamoyillarni o‘rganish diskurs tahlilining mavzusidir».

E’tibor beradigan bo‘lsak, matn hodisasining mohiyati kogerentlik (qismlar bog‘liqligi) bilan belgilanmoqda. Ammo matn tilshunosligining ilk davrlarida e’tibor asosan kogerentlikni ifodalovchi formal vositalarni aniqlash hamda qismlar bog‘liqligi asosida yuzaga keladigan yaxlitlikning (matnning) tuzilish modellari, namunalilikni ajratishga qaratildi. Natijada, matnni turg‘un struktura sifatida og‘zaki nutq materialiga, diskursga qarama-qarshi qo‘yish harakati avj oldi. Matnning turg‘un, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo‘ladi. H.Haberland matnni turli joyda, turli paytda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan predmet, diskursni esa aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa deb hisoblaydi. Uning qayd etishicha, «matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchisiga ko‘chirish imkoni bor, diskurs - hozirgina kechayotgan jarayon, u har safar qayta yaratiladi». Diqqat bilan o‘qisak, H.Haberlandning fikrini ikki xil izohlash mumkin. Birinchidan, olim ikkala hodisani ham natija, mahsul sifatida qaramoqda, ya’ni matn - kechgan muloqot natijasi, mahsuli (og‘zaki matn) yoki yozuv faoliyati, nashr natijasi (yozma matn). Diskurs, o‘z navbatida, tug‘ilgan g‘oya, kommunikativ maqsad (intensiya) natijasidir. Ikkinchidan esa, matn moddiy ob’ekt sifatida nomoddiy ob’ekt - diskursdan farqlanmoqda. Agarda matn va diskursning har ikkilasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo‘lsa, ularni faqatgina zohiriy - formal ko‘rsatkichga asosan «og‘zaki» va «yozma» sifatlari bilan farqlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko‘rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko‘rinishda tasavvur qilish qiyin masala.

Sankt-Peterburg pedagogika universitetining professori I.K.Arxipov diskurs va matn hodisalarining mohiyatini farqlashda H.Haberlandga ergashadi. Ushbu masalaga lisoniy belgilarning ma’no ifodalash qobiliyatining namoyon bo‘lish «hududi» nuqtai nazaridan yondashgan Igor Konstantinovichning ta’biricha, matn murakkab belgi sifatida o‘zida moddiylik (shakl) va ideallik (ma’no) bog‘lanishini aks ettirishi kerak. Lekin ma’no muloqot ishtirokchilari bir-biriga uzatayotgan tayyor mahsulot emas, ma’no yaratilish va qayta yaratilish jarayonlarini talab qiladi hamda ushbu jarayonlar ruhiy- psixik faollik sharoitida kechadilar. Demak, ma’no shakllanishi ikki tomonlama aqliy faoliyat natijasidir. Shuning uchun qog‘ozga tushirilgan matnda asl ma’nodagi belgi yo‘q. Ularda faqatgina harflar to‘plami mavjud va bu to‘plamlar mazmun shakllanishi uchun turtki bo‘lishlari mumkin. Buning uchun ularga ong «tegib ketishi» kerak bo‘ladi.

Xulosa.

«Matn» va «diskurs» atamalari bir mazmundagi tushunchalarni nomlovchi atamalar emas. Shubhasiz, «diskurs» «matn»ga nisbatan kengroq mazmunda talqin qilinadi. Ha, «diskurs - bir paytning o‘zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning mahsulidir». Diskursiv faoliyat mohiyatan bilim (ma’lumot) berish hamda «yangi bilimni shakllantiruvchi hodisadir». Bilim uzatilishi va yangidan shakllanishi uchun esa matn yaratilishi lozim. Demak, matn diskursiv

faoliyat kechayotgan paytning o‘zidayoq yaratila boshlaydi. Diskurs inson ongli faoliyatining ma’lum bir turi, turkumi bo‘lsa, matn uning bir ko‘rinishidir.

REFERENCES

1. Arxipov 2003: 99
2. H.Haberland. 1995: 914
3. Kibrik, Plungyan. 1997: 307
4. Kubryakova. 2000:11
5. Mamardashvili. 1996: 158
6. Mikael Stabbs. 1983: 15
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, -2008.